


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70810101 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil
«21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura Mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	4
1.2.3.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari	5
2.	70810101 - <i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11
	Kelishuv dalolatnomasi.....	12

1. 70810101 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70810101 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 70810101 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70810101- *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- mutaxassislikning o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;
- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70810101 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70810101 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70810101 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, u yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslari, mashina va asbob-uskunalar;

Qishloq xo‘jaligi ekinlari va mahsulotlari, chorva mollari, parranda, parvarishlanadigan jonzorlar va ulardan olinadigan mahsulotlar;

Qishloq xo‘jalik tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari;

Agrosanoat majmui korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, fan va ta‘lim, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari, texnologiyalar va texnika vositalaridan ratsional foydalanish hamda texnik servis jarayonlarini tashkillashtirish;

Agrar sohada mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va boshqa qishloq infrastrukturasi sub‘ektlarida mashinalardan foydalanish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. 70810101 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- qishloq xo'jalik tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- loyiha-konstruktorlik jarayonlari;
- agrosanoat majmui korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.
- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrnlr kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha-konstruktorlik;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);
- servis xizmatini ko'rsatish;
- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 70810101 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari.

70810101- *Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohaları, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, ishlanmalar va ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash borasidagi yangi ma'lumotlar va axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:

- loyiha-konstruktorlik xujjatlarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash;
- loyihalash ishlarida ish jarayonlarini identifikatsiyalashtirish va modellashtirish, boshqarish va sifatini yaxshilash uchun bilim va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi texnikalarini loyihalashda amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini qo'llash.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali va resurs tejamonkor faoliyatni tashkil etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining bajarilish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- mashina-traktor parklari va qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar echimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida (o'rnatilgan tartibda):

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassisligiga oid o'quv fanlaridan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini olib borish;
- o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitishning texnik vositalarini ishlatish.

Servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari texnik servisi va ta'mirlash strategiyasini belgilash va qo'llash;
- texnik servisini tashkil etish, ishlab chiqarish rejalarni tayyorlash va amalga oshirish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari va ularning agregat, mexanizm, bort axborot tizimlari hamda texnologik jihozlari konstruksiyasini bilish va ulardan samarali foydalanish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari ekspluatatsiyasida muhandislik tizimlarini qo'llash orqali uning atrof-muhitga zararini kamaytirish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalariga servis xizmati ko'rsatish tizimlari va vositalarini qo'llash.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- loyiha va dasturlarni tahlil qilish;
- loyihalarni ekspertiza qilish;
- mutaxassislikka mos yo'nalishlar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

2. 70810101–Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi,

tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo'lish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasidagi yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasiga oid zamonaviy masalalarini echish uchun yangi texnologiyalarni va dasturlar paketlarini qo'llash;

- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasida o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar, dasturiy echimlar, instrumental vositalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;

- ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy seminarlarda chiqishlar qilish, ilmiy-texnikaviy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;

- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish;

- loyihalash ishlarida mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va modellashtirish, boshqarish va sifatini yaxshilash uchun bilim va mahoratdan foydalanish;

- loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi texnikalarini loyihalashda amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini qo'llash;

- xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy xujjatlardan foydalana olish;

- tegishli soha bo'yicha servis xizmatini ko'rsatish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil etish;

- ishlab chiqarish jarayonlarining bajarilish sifatini nazorat qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;

- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring nazorat qilish;

- sohaga oid muammolarni echimini topish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

-oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

-zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

-o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

-o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

-mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

-mutaxassisligi bo'yicha mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish;

-mutaxassisligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida qatnashish;

-mutaxassislikka mos yo'nalishlar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot (stajirovka) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 70810101 – Qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	960	32
Tanlov fanlar	540	18
Ilmiy faoliyat	2100	70

2.3.2. 70810101–Qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	960	32	
1.01		Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	60	2	1
1.02		Qishloq xo‘jalik mashinalari nazariyasi va hisobi	300	10	1,2
1.03		Ilmiy-tadqiqot usullari va eksperimentni rejalashtirish	240	8	1,2
1.04		Qishloq xo‘jalik mashinalarida yangi texnik yechimlar	180	6	1,2
1.05		Qishloq xo‘jaligi texnikalaridan foydalanish va texnik servis asoslari	120	4	3
1.06		Maxsus fanlarni o‘kitish metodikasi	60	2	3
2.00		Tanlov fanlar	540	18	
2.00		<i>Tanlov fanlar (6 ta fan)</i>	540	18	1,2,3
		Jami	1500	50	
		Ilmiy faoliyat	2100	70	1,2,3,4
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	960	32	
		Ilmiy pedagogik ish va ilmiy seminar	240	8	
		Ilmiy amaliyot (stajirovka)	900	30	
		HAMMASI	3600	120	

2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-mexanik, tadqiqotchi pedagog

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, magistratura mutaxassisligi, bilish, malaka, ko'nikma, mutaxassislik, tasavvur, fan, axborot tizimlari, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik, ishlar, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat tasnifi, kasbiy faoliyat turlari, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, magistratura, ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, konsalting, qishloq xo'jaligi mashinasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkiliy boshqaruv, agrosanoat majmui korxonalari, mashina va asbob uskunalar, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, stajirovka, magistrlik dissertatsiyasi, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

Rektor  B. Mirzaev



KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Qishloq xo‘jaligida
bilim va innovatsiyalar
milliy markazi

Bosh direktor

 A. Turaev




O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor


 SH. YAkubov


202 yil « _____ »
M.O.:



“BMKB-Agromash” AJ

Bosh direktor

 R. Nurmatov



Jizzax politexnika instituti

Rektor

 A. Usmankulov

202 yil « _____ »
M.O.:



KELISHUV DALOLATNOMASI

“ ” 2023 yil

70810101 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish

B. Mirzaev

